

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ
(энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ
2024 йил 10 май

Бухоро - 2024

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шахарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилаётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий багликларини кучайтириш максадида Бухоро давлат университетида 2024 йил 10 май куни “БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ” (ЭНГ КАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ^ОЗИРГАЧА) мавзусидаги Республикао микёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш максадида утказилди.

Ушбу илмий туплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан кизикувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мулжалланган

Масъул муҳаррир:

БухДУ профессори, тарих фанлари доктори

Х.Х.Тураев

Таҳрир хайъати ва аъзолари:

О.Х.Хамидов - Бухоро давлат университети ректори, и.ф.д., профессор Т.Х.Расулов - илмий ишлар ва инновациялар буйича проректор, ф.ф.д., профессор А.А.Болтаев - Тарих юридик факультети декани, ф.ф.д., доцент Ф.У.Темиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири, т.ф.ф.д (PhD) доцент С.И.Иноятов - Бухоро давлат университети профессори, т.ф.д.

М.И.Ниязова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н М.Б.Курбонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н Ф.Д.Бобожонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н А.А.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.ф.д (PhD) Б.Б.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта уқитувчиси, т.ф.ф.д (PhD) О.И.Ражабов - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта уқитувчиси, Ш.У.Носиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси уқитувчиси,

Тупловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Темиров Ф.У. - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири

Умаров Б.Б. - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси уқитувчиси

Носиров Ш.У. - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси уқитувчиси

Мазкур туплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2024 йил 4 майдаги
9 - сонли карори билан нашрга тавсия килинган.

***Илмий-амалий анжуман материаларида ёритилган тарихий жараёнлар, маълумотлар,
чиқарилган холосалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг
узлари масъул ва жавобгардир***

Бухоро тарихи масалалари (энг кадимги замонлардан хозиргача)
**BUXORO MATBUOTCHILIGI VA UNING O'ZIGA XOS TARIXIGA BIR
NAZAR**

**Azimova Anora Asrорjonovna - Buxoro davlat universiteti, 2-kurs
magistranti Utayeva Feruza Xolmamatovna Buxoro davlat
universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)**

1920- yil avgust oxirlari va sentyabr oyi boshlarida Buxoro amirligi ag'darilganidan keyin uning o'rнida tuzilgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumatining reja, dastur va vazifalarini sobiq amirlik hududida yashovchi aholiga yetkazish maqsadida mahalliy matbuotga asos solish, ya'ni maxsus gazeta chop ettirish masalasi kun tartibiga qo'yiladi¹. Shu maqsadda 1920- yil 9 - sentyabrda, ya'ni amirlik tuzumi ag'darilganidan roppa-rosa bir hafta o'tib, BXSRning markazi Eski Buxoro (hozirgi Buxoro) shahrida o'zbek adabiy tilida, isloh qilingan arab imlosida "Buxoro axbori" nomi bilan gazeta chop etilgan. "Buxoro axbori"ning 1920 - yil 9 - sentyabrda bosmadan chiqqan 1-sonida "Maqsad va maslak" nomli muharririyat tomonidan bosilgan yirik maqolada: "Gazetaning maqsadi buxoroliklarga inqilobimizning va uning amallarini, sabablarini, uning qoida va fazilatlarini bir suratda tushuntirmakdan iboratdir. Shu barobar kelajak ishlarining saodat va iqboli yo'linda rag'bat etib, Buxoroning obodligiga xizmat etmak" kabi fikrlar bayon etilgan.

Gazetada Buxorning Inqilobiyo qo'mitasi, 1921-yildan esa BXSR Markaziy Ijroiya qo'mitasi organi sifatida nashr qilingan². "Buxoro axbori" gazetasining shakli bilan tanishilar ekan, gazeta katta formatda 2 ta sahifadan, o'rtaligi formatda esa 4 ta sahifalarda yupqa va sifati jihatidan yuqori darajada bo'limgan sarg'ish rangli bosmaxona qog'ozida nashr qilingan. "Buxoro axbori" gazetasi 1920-yil 9-sentabrdan chop qilingan bo'lib, gazetaning birinchi sonidan boshlab, to ikki yil davomida, aniqrog'i, ya'ni 1922-yil 21-sentabrga qadar haftada doimo bir marta 1000-1500 nusxada bosmadan chiqarib turilgan. "Buxoro axbori" gazetasining birinchi sonining to'rtinchi sahifasining oxiridagi ma'lumotlardan keltirilishi cha, gazetaning dastlabki muharriri marifatparvar, matbaachilik sohasida muayyan tajriba orttirgan Mahmud Said Ahroriy hisoblangan³. Mahmud Said Ahroriy muharrirlik qilgan davrlar 1920-yil 9-sentabrdan 1921-yil 30-iyungacha "Buxoro axbori" gazetasi bir oyda 4-5 marotaba, ya'ni hafta davomida bir marta chop etib turilgan. Haftaning gazeta chop etilib turadigan kuni aniq, qat'iy belgilanmagan bo'lib, uning chiqishi ba'zan dushanba, ba'zi holatlarda chorshanba, ba'zi hollarda esa juma kunlariga to'g'ri kelgan. Bosh muharrirning tashkilotchilik salohiyati va xizmati shundaki, u gazeta atrofida muxbir hamda matbaachi mutaxassislarini to'plagan.

Shuningdek, BXSR ning chekka viloyatlaridan xabar to'plab gazeta yuborib turadigan qishloq muxbirlari guruhini ham vujudga keltirgan. Muharririyat tarkibida faoliyat olib borayotgan muxbirlar hamda ayrim hukumat a'zolari gazeta sahifalaridagi chiqishlarida ko'p millionli buxoro aholisi uchun yagona gazeta va uning 1000-1500 tadan oshmaydigan nusxalari yetarli emasligini qayd qilishgan. "Buxoro axbori" gazetasi tirajining kam nusxada chop etilishiga poligrafiya bazasining kamchiliklari bo'lib, nashroyot ishlarining zamon talablari asosida yo'lga qo'yilmaganligi, musulmon shriftining yetishmasligi, malakali matbaachi mutaxassislarining deyarli kamligi, moddiy qiyinchilik lar kabi ko'pgina omillar sabab bo'lgan. Bevosita "Buxoro axbori" gazetasida bosilgan ayrim xabar va ruknlaridan ma'lum bo'ladiki, matbaachi mutaxassislarini gazeta ishiga jalb qilish uchun hukumat rahbarlari hamda bosh muharrir xorijdan bu sohaning ziyyolilarini taklif qilishgan. Jumladan, gazeta ma'lumotlaridan birida: "Qozondan 14 nafar matbaachi mutaxassis Buxoroga taklif qilingan. Ular davlat nashriyotida ishlay boshladilar. Biroq ularning 9 nafari "Buxoro varajasi" (bezgak) kasaliga^{1 2 3}

Республика мицёсидаги илмий-амалий конференция

chalini, hayotdan ko'z yumgan. Ko'pgina tatar mutaxassislarini ishlash shart-sharoitining og'irligi, maosh ozligi va kasalliklar bilan bog'liq sabablar tufayli o'z yurtlarig'a qaytib ketganlar", - deb yozilgan¹. Mahmud Said Ahroriydan keyin "Buxoro axbori" gazetasiga Cho'lpon bosh muharrirlik qilgan. 1922-yilda Cho'lpon

¹ Raxmonov K.Buxoroda mahalliy matbuotning vujudga kelishi tarixidan (XX asrning birinchi choragi) // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. -Buxoro, 2008. -№3. -B. 24-28

² Alimova.D.,Mustafayeva.N.,Rajabov.Q.Tarixga murojaat xolislikni talab etadi // O'zbekiston tarixi. - T.:2004.N3 - 70-81 b.

³ Raxmonov K.Buxoroda mahalliy matbuotning vujudga kelishi tarixidan (XX asrning birinchi choragi) // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. -Buxoro, 2008. -№3. -B. 24-25

xasta bo'lib shifoxonaga tushgach shu yilning 4- fevralidan 17-iyuniga qadar Ziyo Usmoniy "Buxoro axbori" gazetasiga bosh muharrir etib tayinlangan.

Ziyo Usmoniydan so'ng gazetaga Ostonqul Abdulqiyomov 1922-yil iyul-sentabr oylarida bosh muharrirligini qilgan. Bir asrni ortda qoldirgan gazetamiz ne-ne mashaqqatli va sinovli davrlarni va albatta jonkuyar, fidoyi, ma'rifatli kishilar muharrirligini qilganlar. "Buxoro axbori" gazetasining bugungi zamonaliviy ko'rinishi ya'ni "Buxoronom" gazetasidir. Bugun gazetamiz har qanday ma'lumotlarni aholimizga tez va sifatli darajada yetkazib bera oladi.

Xulosa qilib aytganda, "Buxoro axbori" gazetasining yaratilishi yurtimiz tarixida juda katta o'ringa ega. Shuni ta'kidlash joizki, XX asr boshlarida Buxoro matbuotchiligi tarixi uning o'ziga xos yo'lidan borganligini va taraqqiyatparvarlarning uzliksiz chiqi b turadigan mahalliy matbuotga asos solishdek xattiharakatlari amaldagi natijasini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Курбонова, Д. Н. (2024). ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ GOOGLE DOCS И РЕДАКТИРОВАНИЯ ФАЙЛОВ В СРЕДЕ GOOGLE. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 44(4), 108-113.
2. Soliyevna, S. S. (2024). SO‘G‘D KONFEDERATSIYASINING SHAKLLANISH JARAYONI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20(4), 174-180.
3. Kholmamatovna, U. F. (2024). CREATION OF THE PLACE OF SPECIALISTS AND JOB IN THE TEXTILE INDUSTRY. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20(4), 189-197..
4. Axmatovna, J. N. (2024). QUYI ZARAFSHON VOHASI AHOLISINING YER-SUVDAN FOYDALANISH BILAN BOGLIQ AN'ANALARI (XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARI). *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20(4), 181-188..
5. Utayeva, F. (2023). TO'QIMACHILIK FABRIKASIDA AHOLINING ISH BILAN TA'MINLANISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu.uz), 41(41).
6. F Utayeva **BUXORO IP-GAZLAMA KOMBINATINING QURILISH TARIXI VA ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATI** ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 2023
7. Utayeva, F., & Muxamedjonova, M. (2024). TO 'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O 'RNI. *Farg'onadavlat universiteti*, (1), 49-49.
8. F Utayeva, B Safarov **ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА И ПРОИЗВОДСТВЕННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ БУХАРСКОГО ПРЯДИЛЬНОГО-ТЕКСТИЛЬНОГО КОМБИНАТА** Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali, 2023

9. Utayeva, F. (2023). BUXORO TO'QIMACHILIK KOMBINATINI MALAKALI MUTAXASISLAR BILAN TA'MINLASH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*), 41(41).
10. Utayeva, F. (2023). BUXORO IP-GAZLAMA KOMBINATINING QURILISH TARIXI VA ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*), 41(41).
11. Utayeva, F., & Safarov, B. (2023). ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА И ПРОИЗВОДСТВЕННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ БУХАРСКОГО ПРЯДИЛЬНОГО-ТЕКСТИЛЬНОГО КОМБИНАТА. *Farg'onadavlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 303-307.
12. Utayeva, F., Sharipova, P., & G'ayratjon qizi Rahmatova, R. F. (2023). MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORO TO 'QIMACHILIK SANOATIDA MODERNIZATSİYALASHUV JARAYONLARI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (6), 61-61.
13. Kholmamatovna, U. F. (2022). Bukhara Yarn and Fabric Factory (1970-1985). *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 3(6), 160-164.
14. Utayeva, F. (2022). Utayeva FX MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*), 18(18).
15. Utayeva, F. (2022). Utayeva FX BUXORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*), 18(18).
16. Utayeva, F. (2021). BUXORO TARIXINI O'RGANISHDA ARXEOLOGIK TADQIQOTLARNI O'RNI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*), 7(7).
17. Utayeva, F. (2021). Activities and Financial Status of Bukhara Mangit Rulers in The Years Of Independence. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*), 7(7).
18. Utayeva, F. (2021). TARIX DARSALARIDA MUTAFAKKIRLARNING MA'NAVIY MEROSLARIDAN FOYDALANISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*), 6(6).
19. Utayeva, F. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ИЛМИЙ ТАРИХИЙ МАТБУОТДА БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*), 6(6).
20. Utayeva, F. (2021). MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*), 8(8).
21. Kholmamatovna, U. F. (2024). CREATION OF THE PLACE OF SPECIALISTS AND JOB IN THE TEXTILE INDUSTRY. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20(4), 189-197.
22. Utayeva, F., & Muxamedjonova, M. (2024). TO 'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI. *Farg'onadavlat universiteti*, (1), 49-49.